

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
DINSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DINSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida dinshunoslik fani bilan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Dinshunoslik

1. Din tushunchasi, mohiyati va jamiyatdagi o‘rni.
2. Jahon dinlari: Islom, Xristianlik, Buddizm va boshqa dinlarning asosiy g‘oyalari.
3. Muqaddas kitoblar va diniy manbalar.
4. Diniy marosimlar, urf-odatlar va an‘analar.
5. Din va madaniyatning o‘zaro aloqasi.
6. Dinlararo bag‘rikenglik va diniy ekstremizmga qarshi kurash tushunchalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Din tushunchasi, mohiyati va jamiyatdagi o'рни	Din tushunchasi, uning funksiyalari, ijtimoiy hayotdagi roli, dinning jamiyatdagi integrativ va normativ vazifalari	4 ta
2	Jahon dinlari: Islom, Xristianlik, Buddizm va boshqalar	Jahon dinlarining kelib chiqishi, asosiy g'oyalari, yo'nalishlari va ta'limotlari	8 ta
3	Muqaddas kitoblar va diniy manbalar	Qur'on, Injil, Tripitaka va boshqa diniy manbalar, ularning mazmuni, tasnifi va ahamiyati	6 ta
4	Diniy marosimlar, urf-odatlar va an'analar	Diniy marosimlarning mohiyati, turlari, urf-odatlar va an'analar bilan o'zaro bog'liqligi, ijtimoiy funksiyalari	6 ta
5	Din va madaniyatning o'zaro aloqasi	Din va madaniyatning o'zaro ta'siri, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi	6 ta
6	Dinlararo bag'rikenglik va diniy ekstremizmga qarshi kurash tushunchalari	Diniy bag'rikenglik, tolerantlik, ekstremizm va radikalizm tushunchalari, ularning oldini olish mexanizmlari	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Dinshunoslikka oid asosiy tushunchalar (din, e'tiqod, marosim, bag'rikenglik), jahon dinlari - Islom, Xristianlik, Buddizm va boshqalar, muqaddas manbalar hamda diniy ta'limotlarni eslab qolish, tushunish va nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirilgan diniy-nazariy bilimlarni turli ijtimoiy, madaniy va ma'naviy vaziyatlarda qo'llay olish, diniy bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqot, diniy marosimlar va urf-odatlarni real hayotiy kontekstlarda tahlil qilish	60 %

3.	Mulohaza qilish	Diniy jarayonlar, ekstremizm, sekulyarizatsiya, din va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mantiqiy tahlil qilish, turli diniy qarashlarni solishtirish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish	20 %
-----------	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Jalilov B. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Noshir, 2019.
2. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. - Toshkent: OOO "Complex print", 2020.
3. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021.
4. Saifnazarov I., Sulstonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2019.
5. Tojiboyeva D., Xusainova F. Dinshunoslik. - Toshkent, 2012.

6. Islomov Z.M., Muhamedov N.A., Sindarova F.A. Dinshunoslik. - Toshkent: Niso Poligraf, 2016.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*